

O‘zbekiston
Metama’lumot
Korxonalar va tashkilotlar soni

Ishlab chiqilgan sana: 29.05.2020

Oxirgi yangilangan sana: 26.06.2023

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonunni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma’lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma’lumotlarini taqdim etish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko‘rsatmalar berish va statistika ma’lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo choralari qonunga muvofiq o‘z vakolatlari doirasida qo‘llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma’lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to‘g‘ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma’lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko‘ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma’lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan statistika ma’lumotlarini va (yoki) ma’muriy ma’lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma’lumotlarining maxfiyligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma’lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma’lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma’lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma’muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo‘jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistika hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Statistika registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasida 9 nafar xodim ishlaydi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registrini yuritish bo'yicha xodimlarni o'qitish doimiy ravishda olib boriladi. Boshqarma xodimlari quyidagi o'quv kurslarida o'z malakalarini oshiradilar:

- Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida;
- Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan Birlashgan Vena instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan o'quv kurslarida, shuningdek, xalqaro statistika tashkilotlarining boshqa seminarlarida;
- Osiyo va Tinch okeani statistika instituti va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan onlayn kurslarda.

Boshqarmada kompyuterlar soni yetarlicha bo'lib, har bir xodim o'zining kompyuterida ishlaydi. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internetga kirish imkoniga ega.

Moliyaviy mablag'lar statistika dasturi doirasida taqdim etiladi va dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish, shuningdek, korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registrini yuritish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun yetarlidir.

1. Begʻarazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan begʻarazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika boʻlimlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil boʻlib, bevosita vakolatli davlat organiga boʻysunadi.

Mazkur statistik maʼlumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yoʻl qoʻyilmagan va kasbiy mustaqillik toʻliq taʼminlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi eʼtiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan oʻquv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan oʻquv kurslari, oʻquv-amaliy seminarlarda ishtirokini taʼminlash orqali taʼminlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan oʻquv kurslarida maʼruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini eʼlon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini taʼminlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida maʼlumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan maʼlumotlarni birlashtirish, maʼlumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bogʻlashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy maʼlumotlar toʻplamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika maʼlumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika maʼlumotlarining sifati toʻgʻrisida metamaʼlumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga (<https://stat.uz>) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Korxonalar va tashkilotlar soni ma'lum bir davr oralig'ida faollik xolati, iqtisodiy faoliyat turi va hududlar kesimi bo'yicha hisoblanib e'lon qilib boriladi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Hozirgi kunda Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri quyidagi faollik xolatlari bo'yicha yuridik shaxslarning qamrovini o'z ichiga oladi:

- ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar to'g'risida;
- faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar to'g'risida;
- faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslar to'g'risida;
- yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar to'g'risida;
- ixtiyoriy tugatish jarayoniga kiritilgan yuridik shaxslar to'g'risida.

Ushbu faollik holatlari bilan birgalikda yuridik shaxslar iqtisodiy faoliyat turlari, tashkiliy-huquqiy shakli, yuridik shaxsning idoraviy mansubligi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha qamrovini amalga oshiradi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Istisnolar yo‘q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subektlari hisobisiz yuritiladi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo‘yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo‘yicha taqsimlash

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-sonli qarorining 1-ilovasi hamda Davlat statistika qo‘mitasining 2019-yil 19-sentabrdagi 96-sonli buyrug‘ining 3-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subektlariga ajratiladi.

Faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash O‘zbekiston Respublikasi umumdavlat iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT 2-tahrir) ga muvofiq amalga oshiriladi, mazkur tasniflagich Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy faoliyat tasniflagichi (NACE rev.2) ga mosdir.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Talab etilmaydi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Talab etilmaydi.

2.4.3 Yalpi/sof ko‘rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Talab etilmaydi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma’lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish asoslari

Davlat statistika qo‘mitasining 2014- yil 30- maydagi 3-mb-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi “Reg-System” da ishlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”ga (AV 12.06.2014 y., ro‘yxat raqami 2594) asosan ishlar amalga oshiriladi. Bunda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar tomonidan taqdim etiladigan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’muriy ma’lumotlar maxsus tizim orqali Korxon va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasiga kelib tushadi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlar bazasiga ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan avtomatlashtirilgan tizim orqali real vaqt rejimida ma'lumotlar kelib tushadi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlar statistika dasturida belgilab berilgan vaqtdan kechiktirilmagan holda taqdim etib boriladi.

Ma'lumotlar:

oylik- har oyning 5 sanasiga qadar;

choraklik- chorak yakunidan keyingi oyning 5 sanasiga qadar;

yillik – yil yakunidan keyingi oyning 5 sanasiga qadar.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1-ilovasi hamda Davlat statistika qo'mitasining 2019-yil 19-sentabrdagi 96-sonli buyrug'ining 3-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subektlariga ajratiladi.

Faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash O'zbekiston Respublikasi umumdavlat iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT 2-tahrir) ga muvofiq amalga oshiriladi, mazkur tasniflagich Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy faoliyat tasniflagichi (NACE rev.2) ga mosdir.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlar bazasida tegishliligi bo'yicha quyidagi o'zgarishlar amalga oshiriladi:

yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi va unda ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni o'zgarganda — yillik davlat statistika hisoboti asosida;

yuridik shaxsning idoraviy mansubligi o'zgarganda — uning muassislari yoki davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan tushgan ma'lumotlari asosida.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Hududlar kesimida yuridik shaxslar to'g'risida ma'lumotlar shakllantiriladi. Ayrim ma'lumotlar manbalarida keskin farq qiluvchi kamchiliklar bor yoki yo'qligi tekshirib boriladi. Dastlabki ma'lumotlar tahlil qilinadi va dinamik mosligi tekshiriladi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Talab etilmaydi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Talab etilmaydi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Korxonalar va tashkilotlar soni ma'muriy ma'lumotlar asosida tayyorlanadi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Davriylik va muddatlilik ma'lumotlarni tarqatishning umum e'tirof etgan standartlariga javob beradi. Korxonalar va tashkilotlarning soni bo'yicha ma'lumotlar oylik davriylikda tayyorlanadi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Korxonalar va tashkilotlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar har oy yakunlari bo'yicha shakllantirilib, e'lon qilib boriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Tasdiqlangan va tarqatilgandan so'ng, statistik qatorlar qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Korxonalar va tashkilotlar soni 2000- yildan boshlab yillik ma'lumotlar mavjud. 2014 yildan boshlab Korxonalar va tashkilotlar soni IFUT-2 ga asoslangan holda hisoblab chiqilgan. Ma'lumotlar 2000- yildan Statistika agentligining rasmiy saytida joylashtirilgan (<http://stat.uz/>).

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Ma'lumotlar Statistika agentligining Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registriga Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarning ma'lumotlar bazasidan integratsiya yo'li bilan kelib tushadi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Talab etilmaydi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Talab etilmaydi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Talab etilmaydi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Oylik, choraklik va yillik ma'lumotlar foydalanuvchilarga to'plamlar ("O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati", "O'zbekiston raqamlarda", "O'zbekiston Respublikasida axborot jamiyati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari"), statistik jadvallar ("Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registridagi yuridik shaxslar demografiyasining asosiy ko'rsatkichlari"), press-relizlar ("O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi") ko'rinishida nashr qilinib boriladi hamda Statistika agentligining rasmiy saytida nashr qilish orqali taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma'lumotlar Statistika agentligi "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" (har chorakda), "O'zbekiston raqamlarda" (yilda bir marta), "O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami" (ikki yilda bir marta), "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registridagi yuridik shaxslar demografiyasining asosiy ko'rsatkichlari" (har chorakda) nashrlari orqali chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Bundan tashqari, ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning so'rovlariga asosan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Har chorakda “O‘zbekiston Resublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” , “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registridagi yuridik shaxslar demografiyasining asosiy ko‘rsatkichlari” nashrlari taqdim etiladi, bundan tashqari statistik ma’lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko‘rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Yil yakuni bo‘yicha “O‘zbekiston Resublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” , “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registridagi yuridik shaxslar demografiyasining asosiy ko‘rsatkichlari” nashrlari taqdim etiladi, bundan tashqari statistik ma’lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko‘rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Yillik ma’lumotlar “O‘zbekiston raqamlarda” (yilda bir marta), “O‘zbekiston Resublikasi yillik statistik to‘plami” (ikki yilda bir marta) nashrlari taqdim etiladi, bundan tashqari statistik ma’lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko‘rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Choraklik va yillik ma’lumotlar davlat boshqaruv organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning maxsus so‘rovlariga binoan kelishilgan elektron jadvallar ko‘rinishida taqdim etib boriladi.

Statistika agentligiining rasmiy saytida statistik ma’lumotlar - elektron jadvallar ko‘rinishidagi dinamik qatorlar, press-revizlar, open-data har oyda joylashtiriladi va muntazam yangilanadi, shu bilan birga, «O‘zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari» taqdim etiladi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar uchun registr@stat.uz saytida yuridik shaxslarning STIR raqamini kiritib ma’lumotlar olishi mumkin

5.1.3. Ma’lumotlarni e’lon qilish jadvali

Statistika agentligiining rasmiy veb-saytida jamoatchilikka oldindan e’lon qilingan rasmiy statistikani e’lon qilish taqvimini hamda yillik statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq e’lon qilinadi.

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e’lon qilish

Oylik, choraklik va yillik ma’lumotlar foydalanuvchilarga to‘plamlar (“O‘zbekiston Resublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati”, “O‘zbekiston raqamlarda”, “O‘zbekiston Resublikasida axborot jamiyati rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari”), statistik jadvallar

(“Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registridagi yuridik shaxslar demografiyasining asosiy ko‘rsatkichlari”), press-revizlar (“O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi”) ko‘rinishida nashr qilinib boriladi hamda Statistika agentligining rasmiy saytida nashr qilish orqali taqdim etiladi.

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarga ularning so‘rovlari bo‘yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning so‘rovlari bo‘yicha bosma yoki elektron jadval ko‘rinishida, statistik to‘plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi to‘g‘risidagi kelishuvlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama‘lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma‘lumotlarni tarqatish

Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar statistik to‘plamlarda muhim ko‘rsatkichlarga metodologik tushuntirishlar ko‘rinishida tarqatiladi. Statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomlar veb-saytga joylashtiriladi.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatish

5.3.1 Aloqa bog‘lash bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy saytida (<http://stat.uz/>).

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, yakka tartibdagi tadbirkorlarning ham hisobini yuritish uslubiyati ishlab chiqilmoqda.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasini takomillashtirish va yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘g‘risidagi ma‘muriy ma‘lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlardan olish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

Xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda Statistik Biznes Registrlarni yaratish va yuritishni yo‘lga qo‘yish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Osiyo taraqqiyot bankining texnik yordam ko‘rsatishi asosida.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

2022-2025 yillarda Xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda Statistik Biznes Registrlarni yaratish va yuritish uchun texnik yordam ko‘rsatish talab qilinadi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Sheraliyev Nurbek Abduxalilovich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	+998-71-202-8090
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	+998-71-202-8091
Elektron manzil:	registr@stat.uz